(3). Explores Uzbek aphorisms and their linguistic characteristics.
(4). Nazarova, G T. (2020). The cultural and linguistic impact of aphorisms in English and Uzbek languages. Journal of World Languages and Cultures, 8(3), p. 45–56.
(5). Discusses comparative aspects of English and Uzbek aphorisms.
(6). Smith, J.A. (2018). Science and language: Analyzing scientific aphorisms in English literature. Language & Science Quarterly, 12(4), p. 102–120.
(7). O‘zbek milliy ensiklopediyasi (n.d.). Ilm va axloqiy qadriyatlar. Retrieved November 18, 2024, from https: //ensiklopediya.uz/ilm-axloqiy-qadriyatlar.

Haydarova Dilafruz Inoyatullaevna (Navoiy davlat Pedagogika instituti o‘zbek tili ixtisosligi tayanch doktoranti; e.mail: haydarovadilafruz9@gmail.com)

O‘ZBEK TILIDAGI DINIY MATNLARDA KECHIRIM NUTQIY AKTINING IFODALANISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada so‘nggi yillarda tilshunoslikda keng tarqalgan “diniy matn” tushunchasi va uning mohiyati, diniy matnlar tadqiqi, kechirim nutqiy akti va uning diniy matnlar doirasida o‘rganilishi masalasiga oydinlik kiritilgan. Maqolada o‘zbek milliy tili egalarining nutqidagi kechirim nutqiy aktini diniy matnlardan ayricha o‘rganib bo‘lmasligi asoslangan. Diniy manbalar tahlilida mazmuniy mundarijasida kechirim semasi mavjud bo‘lgan til birliklari aniqlangan, misollar bilan dalillangan. Shuningdek, duo deb ataluvchi diniy matnlar, ularning turlari, mohiyati, pragmatik tarkibi va tahlili keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *diniy matn, dunyoviy matn, kechirim nutqiy akti, gunoh, kechirim so‘rovchi adresant– inson, kechirimni qabul qiluvchi adresat – Alloh, gunohni tan olish, adresant ruhiy holatini ifodalovchi nutq, kechirimning noverbal shakllari, bilvosita aloqa.*

Хайдарова Дилафруз Иноятуллаевна (Навоийский государственный педагогический институт, докторант специальности узбекский язык)

ВЫРАЖЕНИЕ РЕЧЕВОГО АКТА ИЗВИНЕНИЯ В РЕЛИГИОЗНЫХ ТЕКСТАХ НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В данной статье разъясняется понятие “религиозный текст”, получившее широкое распространение в лингвистике в последние годы, и его суть, изучение религиозных текстов, речевой акт извинения и его изучение в рамках религиозных текстов. Статья основана на том факте, что речевой акт извинения в речи носителей узбекского национального языка никаким образом не изучается отдельно от религиозных текстов. При анализе религиозных источников в содержательном наполнении выявлены языковые единицы, содержащие семы извинения и подтверждаются примерами. Также представлены религиозные тексты, так называемые молитвы, их виды, сущность, прагматический состав и анализ.*

Ключевые слова: *религиозный текст, светский текст, речевой акт прощения, грех, адресантом, просящим прощения является человек, адресатом, принимающим прощение является Бог, признающий грех; речь, выражающая душевное состояние адресата; невербальные формы извинения, непрямое общение.*

Khaidarova Dilafruz Inoyatullaevna (Navoi State Pedagogical Institute, doctoral student, specialty Uzbek language)

EXPRESSION OF THE SPEECH ACT OF FORGIVENESS IN RELIGIOUS TEXTS IN THE UZBEKISTAN LANGUAGE

Annotation. *This article explains the concept of “religious text”, which has become widespread in linguistics in recent years, and its essence, the study of religious texts, the speech act of apology and its study within the framework of religious texts. The article is based on the fact that the speech act of apology in the speech of speakers of the Uzbek national language is in no way studied separately from religious texts. When analyzing religious sources, the content revealed linguistic units containing semes of apology and is supported by examples. Also religious texts, the so-called “prayers”, their types, essence, pragmatic composition and analysis are presented.*

Key words. *religious text, secular text, speech act of forgiveness, sin, the addressee asking for forgiveness is a person, the addressee receiving forgiveness is God, recognizing the sin; speech expressing the addressee’s state of mind, non-verbal forms of apology, indirect communication.*

Kirish. So‘nggi yillarda tilshunoslikda keng tarqalgan “diniy matn’ tushunchasi olimlar tomonidan turlicha talqin qilinmoqda. Bunday har xillik yangi va ayni damda tarixiy o‘rganish obyektining murakkabligi va ko‘p qirraliligi bilan izohlanadi. Hozirgi vaqtda “diniy matn” deganda diniy mavzudagi matn, din sohasidagi nutqiy aktlar, mavzuiy jihatdan inson e’tiqodiga bog‘liq matnlar to‘plami va h.k. tushuniladi [2]

Diniy matnlarda insonning Xudo bilan aloqasi, diniy bilimlarni egallash, uzatish kabilar ifodalanadi. Tadqiqotimiz ob'ekti kechirim nutqiy akti ekanligini inobatga olib aytish mumkinki, o'zbek milliy tili egalarining nutqidagi kechirim nutqiy aktini diniy matnlardan ayricha o'rganib bo'lmaydi. "Muayyan bir millat tilini antropotsentrik jihatdan mukammal o'rganish uchun "til va din"ning o'zaro aloqasi va munosabatini o'rganuvchi teolingvistika (grek. theos – Xudo va lot. lingua – til) yo'nalishi muhim o'rin tutadi" [1].

Adabiyotlar tahlili. Dunyoviy matnlarda kechirim nutqiy aktlarining asosini "ayb, xato, noto'g'ri ish" tushunchalari tashkil etsa, diniy matnlarda "gunoh" tushunchasiga asoslanadi. Shunga ko'ra, diniy va dunyoviy matnlardagi kechirim nutqiy aktlari mundarijasi "samoviy", "ichki" va "tashqi", "dunyoviy" semalarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, E.V.Artamonova kechirimning diniy va dunyoviy shakllarini turli janrlar sifatida ajratib ko'rsatadi: "Diniy kechirim so'rash Xudoning amrlarini buzish, inson tabiatining gunohkorligi bilan bog'liq yuksak axloqiy va manaviy muammolarni ko'rib chiqadi. Dunyoviy kechirim so'rash insonning jamiyat bilan oqilona, o'zaro manfaatli munosabatlarini aks ettiradi. Bunda muloqot hamkorlarining e'tibori o'zaro munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'ladi [3].

Diniy kechirim nutqiy aktida kechirim omili gunohdir. Gunoh (fors – jinoyat, ayb; asli shu ma'nodagi arab. "junoh" so'zidan olingan) diniy axloqiy tushuncha bo'lib, diniy aqidalarga xilof ish yoki xatti-harakatni bildiradi. Gunoh tushunchasi qadimda turli ta'qiqlarni buzuvchi, axloqsiz odamning harakati ma'nosida qo'llangan.[1]

Diniy matnda qo'llanilgan nutqiy aktning umumiy kommunikativ maqsadi Xudoning hukmidan qo'rqish va kechirim so'rashdir. Mazkur nutqiy akt murakkab illokutsiyaga ega. So'zlovchi qilgan gunohi uchun tavba qilganidan keyin ruhiy holati o'zgaradi: ma'naviy kamolotga bir qadam qo'ygandek, vijdoni engillashgandek his etadi. E'tiborlisi shundaki, so'zlovchi adresat bilan to'g'ridan to'g'ri muloqotga kirishmaydi. Adresat tasavvuriy bo'lib, u bilan qilingan nutqiy muloqot ichki va tashqi nutq shaklida namoyon bo'ladi. So'zlovchi o'z gunohini e'tirof etar ekan, ya'ni, tan olar ekan uning kechirilishiga ham ishonadi va Xudoning rahm-shafqatiga umid qiladi, ya'ni so'ralgan kechirim uchun javob talab qilinmaydi.

Shu nuqtayi nazardan ayrim tadqiqotchilar kechirimga asoslangan diniy murojaatni uzr so'rashning maxsus turi deb baholashadi (E.V.Artamonova; A.Y.Chernisheva). Bunday kechirimning pragmatik tarkibini kechirim so'rovchi adresant– inson; kechirimni qabul qiluvchi adresat – Alloh; gunohni tan olish; adresant ruhiy holatini ifodalovchi nutq (samimiy tuyg'ular, pushaymonlik), kechirim so'rashning noverbal shakllari, tiz cho'kish, sajda qilish, aybini tan olishning o'z vaqtidaligi, adresat bilan bevosita aloqa yo'qligini e'tirof etish (xayolan kechirim so'rash), boshqa inson uchun kechirim so'rash, kechirim so'rashning sababi: Xudoning hukmidan qo'rqish; vaziyat ishtirokchilarining hissiy holati o'zgarishi (adresant vijdon azobidan yengillashadi, adresat adresantga nisbatan "nimadir yaxshilik" taqdim etishiga ishonch).

Material va metodlar. Ma'lumki, O'zbekistonda islom dini eng ko'p tarqalgan va millatimiz egalarining aksariyati e'tiqod qiladigan din sanaladi. Shu nuqtayi nazardan biz mazkur o'rinda musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi Qur'oni karim ("Qur'oni karim – o'zbekcha ma'nolari tarjimasi" [9], atoqli islom olimi Imom Ismoil al-Buxoriyning 4 jildli „Al-Jome' As-Sahih" kitobi tarjima matnlari va ayrim badiiy asarlardan olingan diniy kechirim nutqiy aktlarga murojaat qilishni maqsad qildik. Tadqiqot obyekti kechirim nutqiy akti bo'lganligini inobatga olib mazkur manbalarda kechirim nutqiy aktini ifodalovchi til birliklari aniqlandi va statistik tahlil qilindi.

Natijalar. Ma'lumki, Qur'on 114 sura, 6666 oyatdan iborat bo'lib, mazkur manba imkon darajasida tahlil qilinganda mazmuniy mundarijasida kechirim semasi mavjud bo'lgan quyidagi til birliklari qo'llanilganligi kuzatildi:

Kechirmoq fe'li 25 marta ("Albatta, Alloh O'ziga shirk keltirilishini kechirmas. Undan boshqani, kimdan xohlasa, kechirur (Niso surasi, 116-oyat).

Afv qilmoq//etmoq fe'li 32 marta ("Albatta, Alloh afv qiluvchidir, mag'firatlidir" (Haj surasi, 60-oyat).

Istig'for aytmoq//keltirmoq (arabcha – gunohni kechirishini, afv etishni so'rash) – Xudodan gunohni kechirishini so'rash, qilgan gunohlariga tavba izhor etib, "Astag'firulloh!!"deyish)[2] fe'li 21 marta. ("*Bas,* Unga istig'for ayting, so'ngra Unga tavba qiling" (Hud surasi, 61-oyat).

Tavba, tavba qilmoq (arabcha–aybiga iqror bo'lish, gunohlari uchun kechirim so'rab yolvorish) fe'li 94 marta ("Gunoh ishlarni qilganlar undan keyin tavba qilsalar va iymon keltirsalar, albatta, Robbing undan so'ng mag'firatlidir, rahmlidir" (A'rof surasi, 153-oyat). Shuningdek, Qur'oni karimda "Tavba" deb nom-

[1]Gunoh – Vikipediya (wikipedia.org).

[2] Афу ва мағфират (muslim.uz).

langan 129 oyatdan iborat sura ham mavjud bo‘lib, shu birgina suraning o‘zida tavba so‘zi 15 marta qo‘llanilgan [4].

Mag‘firat, mag‘firatli, mag‘firat qilmoq (arabcha –“غَفَرَ” fe’li ma’nosida bo‘lib, “kechirish”, “yashirish” va “berkitish” ma’nolarini bildiradi) so‘zlari 196 marta (“Aniqki, bandalarimdan bir guruhi: «Robbimiz, biz iymon keltirdik. Bizni mag‘firat qilgin. Bizga rahm qilgin. Sen rahm qiluvchilarning yaxshisisan», degan edilar” (Nur surasi, 109-oyat).

Tazarru, tazarru qilmoq (uzr bilan yalinish, yolvorish) - 7 marta (“*Qaysi bir shahar-qishloqqa rasul yuborsak, albatta, shoyad tazarru qilsalar deb, uning ahlini zararlar va musibatlar ila tutganmiz*” (A’rof surasi, 94-oyat).

Ma’lumki, Imom Ismoil al-Buxoriyning „Al-Jome’ As-Sahih“ kitobi Islomda ishonchliligi jihatidan Qurondan keyingi ikkinchi manba bo‘lib hisoblanadi. Mazkur kitobning 4 jildi statistik tahlil qilinganda quyidagi ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldik: *Kechirmoq* fe’li 129 marta (“Sizlardan qaysiningiz qavmga zararu boshqalarga manfaat yetkazuvchi amaldor bo‘lib qolsangiz, ansorlarning yaxshi ishlarini qabul qilib, yomon ishlarini kechiringizlar!» deb marhamat qildilar (Imom Ismoil al-Buxoriy. “Al-jome as-sahih” (2-jild).

Afv qilmoq /etmoq fe’li 176 marta (“Guvohlik beramanki, Olloh taolo ul kishini afv etib, gunohlarini kechirdi” (Imom Ismoil al-Buxoriy. “Al-jome as-sahih” (2-jild).

Mag‘firat, mag‘firatli, mag‘firat qilmoq fe’li 211 marta. («Yo parvardigorim, gunohlarimni, jaholatimni, me’yordan ortiqcha qilgan barcha ishlarimni va o‘zing mendan yaxshiroq xabardor bo‘lgan qilmishlarimni mag‘firat qilg‘aysan!” (Imom Ismoil al-Buxoriy. “Al-jome as-sahih” (4-jild).

Xulosa. Ko‘rinadiki, diniy matnlar kechirim nutqiy aktining ifodalanishida muhim va maxsus manba sifatida xizmat qiladi. Yuqoridagi ko‘rsatkichlar ham buning yaqqol dalilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Dementiev. V.V. Theories of speech genres. Moscow, “Znak”, 2010, p. 594.

(2). Gadomsky A.K. On the genres of the religious language in Russian and Polish theolinguistics. Style, 2009, № 8, p. 107–118.

(3). Itskovich T.V. Genre system of religious style. Moscow, 2021.

(4). Karasik V.I. Language circle: personality, concepts, discourse. Volgograd: Change, 2002, 477 p.

(5). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild, 241-bet.

(6). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 3-jild, 631-bet.

(7). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent, 2022, 1-jild, 162-bet.

(7). O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild, Toshkent, «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2000, 408-bet.

Qurbanov Muxtarbay Dauletbaevich (Nukus DPI “Qoraqalpoq tili” kafedrasi dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi; muxtar_kurbanov@mail.ru)

QORAQALPOG‘ISTON ETNOOYKONIMLARI TAHLILI

Annotatsiya. *Maqolada Qoraqalpog‘iston etnooykonimlari, jumladan, o‘zbek millati, uning tarkibiga kiruvchi urug‘ nomlari bilan bog‘liq oykonimlar, ularni o‘rganishning ahamiyati, o‘zbeklarning mazkur hududga ko‘chib kelish tarixi, joylashish areallari tahlil qilingan. Mavzuni yoritish jarayonida sinxron tahlil, qiyosiy-tarixiy va tavsif metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot xulosalari qoraqalpoq toponimikasiga foydali manba bo‘lishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *etnonim, urug‘, qabila, qavm, xalq nomlari, etnotoponim, etnonim bilan atalgan joy nomlari, etnooykonim, etnonim asosli aholi yashash maskanlari nomlari.*

Курбанов Мухтарбай Даулетбаевич (доцент кафедры Каракалпакского языкы НГПИ, кандидат филологических наук; muxtar_kurbanov@mail.ru)

АНАЛИЗ ЭТНООЙКОНИМОВ КАРАКАЛПАКСТАНА

Аннотация. *В статье анализируются этнонимы Каракалпакстана, в том числе узбекский народ, названия, связанные с названиями входящих в него родов, важность их изучения, история миграции узбеков в этот регион, ареалы их расселения. В процессе освещения темы использовались синхронный анализ, сравнительно-исторический и описательный методы. Выводы исследования могут стать полезным источником по топонимии Каракалпакстана.*

Ключевые слова: *этноним, род, племя, народ, народные имена, этнотопоним, названия мест, названных этнонимом, этноним, названия населенных пунктов на основе этнонима.*